Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	



AHOLI REAL DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING ROLI



Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi

Fan va texnologiyalar universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o’qituvchisi,
TDIU “Mehnat iqtisodiyoti” kefedrası
tayanch doktranti,
ORCID: 0009-0007-6454-9990
dilafruz00806@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning o’rni chuqur tahlil qilingan. Inson kapitali – bu ta’lim, sog’liq, kasbiy malaka va innovatsion salohiyat kabi elementlarni o’z ichiga olgan asosiy iqtisodiy resurs sifatida e’tirof etilgan. Maqolada inson kapitalining aholi daromadlariga ta’sir qiluvchi asosiy kanallari, xususan, mehnat unumdorligi va texnologik yangilanishlardagi roli yoritilgan. Tahlil natijalariga ko’ra, O’zbekistonda ta’lim va sog’liqni saqlash sohalariga investitsiyalar oshgani real daromadlar o’sishiga turtki bo’lgan. Maqolada statistik ma’lumotlar va grafiklar asosida 2018–2023-yillar oralig’ida aholining real daromadlari va inson kapitaliga qaratilgan xarajatlar o’zgarishi ko’rsatib berilgan. Shu bilan birga, bandlik shakllari va daromad manbalari diversifikatsiyasi real daromadlarning barqarorligiga xizmat qilishi qayd etilgan. Inson kapitaliga sarmoya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo’lishi asoslangan.

Kalit so’zlar: inson kapitali, real daromad, ta’lim, sog’liqni saqlash, investitsiya.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role of human capital development in the formation of the real income of the population. Human capital is recognized as a key economic resource that includes elements such as education, health, professional qualifications and innovative potential. The article highlights the main channels of human capital affecting the income of the population, in particular, its role in labor productivity and technological innovation. According to the results of the analysis, increased investments in education and healthcare in Uzbekistan have contributed to the growth of real income. The article shows, based on statistical data and graphs, changes in real incomes of the population and expenditures on human capital for the period 2018-2023. At the same time, it is noted that diversification of employment forms and sources of income serves the stability of real incomes. It is based on the fact that investment in human capital is an important factor in long-term economic development.

Key words: human capital, real income, education, healthcare, investment.

Аннотация: В статье дается глубокий анализ роли развития человеческого капитала в формировании реальных доходов населения. Человеческий капитал признан ключевым экономическим ресурсом, охватывающим такие элементы, как образование, здравоохранение, профессиональные навыки и инновационный потенциал. В статье рассматриваются основные каналы влияния человеческого капитала на доходы населения, в частности, его роль в производительности труда и технологических инновациях. По результатам анализа, увеличение инвестиций в образование и здравоохранение в Узбекистане способствовало росту реальных доходов населения. В статье на основе статистических данных и графиков показаны изменения реальных доходов населения и расходов на человеческий капитал в 2018-2023 годах. В то же время отмечается, что диверсификация структур занятости и источников доходов способствует стабильности реальных доходов. Хорошо известно, что инвестиции в человеческий капитал являются важным фактором долгосрочного экономического развития.

Ключевые слова: человеческий капитал, реальный доход, образование, здравоохранение, инвестиции.



KIRISH

Klassik va neoklassik nazariyalarga ko'ra, aholi daromadlari va inson kapitali o'zaro bog'liqdir. Inson kapitali – odamlarning butun umri davomida to'playdigan, jamiyatning samarali a'zosi sifatida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va salomatlikdan iborat. Inson kapitalini rivojlantirish orqali daromadlarni oshirish hamda aholi turmush farovonligini yuksaltirish mumkinligi ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Inson kapitalini rivojlantirish insonlarga ovqatlanish, sog'liqni saqlash, sifatli ta'lim, ish o'rinlari va ko'nikmalar orqali sarmoya kiritishni talab qiladi. Chunki inson kapitalisiz mamlakatlar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmaydi, balki kelajakdagi yuqori malakali ish o'rinlari uchun zarur ishchi kuchiga ega bo'lmaydi va jahon iqtisodiyotida samarali raqobatlasha olmaydi.

Inson kapitalining tarkibiy qismlari bo'lgan ta'lim va sog'liqni saqlash natijalarini ishonchli o'lchash – mahalliy, milliy va global miqyosda – nihoyatda muhim hisoblanadi. Ushbu o'lchovlar resurslarni qayerga yo'naltirish kerakligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashtirish jarayonlari tez sur'atlar bilan kechayotgan bir paytda, har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligi aholining real daromadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Aholi daromadlari nafaqat ularning turmush darajasini belgilovchi asosiy mezon, balki mamlakat ichki iste'mol bozorining faolligi, mehnat unumdorligi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, real daromadlarni shakllantirishning ichki omillarini chuqur o'rganish, ayniqsa, ularning sifat jihatidan o'sishiga sabab bo'luvchi asosiy drayverlardan biri – inson kapitalining rolini tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Inson kapitalining daromadlar o'sishiga ta'siri bir nechta kanallarni o'z ichiga oladi. Bir tomondan, inson kapitalining ko'payishi ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir qilsa, boshqa tomondan, inson kapitali ilmiy-tadqiqot ishlarining muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, u texnologik o'zgarishlarni tezlashtirish orqali mehnat unumdorligini bilvosita oshiradi. Bundan tashqari, umumiy va oliy ta'lim yoki ish joyida o'qitish kabi inson kapitalini rivojlantirishning turli shakllari ishlab chiqarish va innovatsion faoliyatda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda ham iqtisodiy o'zgarishlarning dinamik manzarasida inson kapitalining rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali barqaror o'sish va qashshoqlikni qisqartirishning markaziy omili hisoblanadi. O'z malakasi, sog'lig'i, bilimi va chidamliligini – ya'ni inson kapitalini – yaxshilash orqali odamlar yanada samarali, moslashuvchan va innovatsion bo'lishi mumkin.

Ko'pgina iqtisodchilar inson kapitalini so'nggi ikki asrda nima uchun ayrim mamlakatlar boy, boshqalari esa qashshoq bo'lib qolganini tushuntirishda hal qiluvchi omillardan biri deb hisoblaydilar [1]. Bir tomondan, inson kapitalining rivojlanishi daromadlarni oshirishga xizmat qilsa-da, boshqa tomondan, bu jarayon daromadlar tengsizligining ortishiga ham olib keladi. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda past malakali, kam maoshli vaqtinchalik ishlar bilan yuqori malakali, ijodiy, yuqori daromadli ishlarga qo'yiladigan talablar o'rtasidagi tafovutlar kuchaymoqda.

J. Minser fikriga ko'ra, inson kapitalining shakllanishi odatda shaxsning ta'lim olish yoki o'rganish orqali o'zini-o'zi takomillashtirishi, ya'ni o'z-o'ziga qisqacha sarmoya kiritishi orqali yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakat aholisi ega bo'lgan umumiy bilim va ko'nikmalar zaxirasi ham inson kapitali sifatida belgilanadi.

Shaxslar tomonidan bilim va ko'nikmalarni oshirish, sog'lig'ini yaxshilash uchun kiritilgan investitsiyalar – bu inson farovonligining yetakchi omillaridan biri bo'lib, ular o'rtasidagi sifat farqining ortishiga olib kelishi mumkin. Sifatdagi tafovut malakali ishchi kuchiga nisbiy talabni shakllantiradi va natijada malakali hamda malakasiz ishchi kuchi o'rtasidagi nisbiy ish haqi o'zgaradi.

Rana Eyjaz Ahmadning tadqiqotida ta'lim iqtisodiyoti mukammal sarmoya sifatida yoritilgan. U mamlakatning iqtisodiy yuksalishi uchun inson va moddiy resurslar muqarrar ravishda zarur ekanini ta'kidlaydi. Bu asrda inson kuchisiz qolgan barcha resurslar befoydadir. Shuningdek, tadqiqotida inson kapitali ishchi kuchi, malaka va bilimdan iborat bo'lib, iqtisodiy o'sishning ajralmas sharti ekanligi haqida batafsil ma'lumot beriladi [2].

Inson kapitalini rivojlantirishning aholi daromadlariga ta'sirini o'rganishda global muammolar bo'yicha yondashuvlar o'zbek olimlaridan akademik Q. X. Abdurahmonov tadqiqotlarida keng tahlil etilgan. O'zbekistonda inson kapitali hamda aholi daromadlari, ularning shakllanishi va oshirilishi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilishga B. X. Umurzakov, N. Q. Zokirova, Z. Ya. Xudoyberdiyev, G. Q. Abdurahmonova, N. U. Arabov, A. B. Irmatova va boshqa olimlar katta hissa qo'shgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash, mantiqiy fikrlash, kompleks baholash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholining real daromadlarini shakllantirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va aholi turmush darajasini oshirishda inson kapitali muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ta'lim, kasbiy malaka, sog'liq va innovatsion salohiyat kabi inson kapitali komponentlari real daromadlar hajmi va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, daromadlarning turlari (nominal va real) hamda ko'rinishlari (pul ko'rinishida – naqd yoki elektron shaklda; natural ko'rinishida – mahsulot tarzida) bo'ladi. Aholining real daromadi inflyatsiya, narx o'zgarishlari va xarid qobiliyati hisobga olingan holda aniqlanadi (1-rasm).



1-rasm. Aholi daromadlarini shakllantirish elementlari¹

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, aholining real daromadlarini shakllantirish jarayonini tashkil etuvchi asosiy omillar, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir doirasi ko'rsatilgan. Ushbu elementlar tizimli yondashuv asosida uchta asosiy blokka bo'linadi: inson kapitali, bandlik shakllari va daromad manbalari.

Aholining real daromadlarini belgilovchi asosiy resurs bu – inson kapitalidir. Uning tarkibiy qismlari sifatida ta'lim darajasi, kasbiy malaka, mehnat tajribasi, sog'liq holati, aqliy va innovatsion salohiyat hamda tashkilotchilik

¹ O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi



ko'nikmalari e'tirof etiladi. Yuqori darajadagi inson kapitaliga ega bo'lgan shaxslar mehnat bozorida yuqori samaradorlik ko'rsatadi va yuqori daromad olish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Real daromadlar shakllanishining ikkinchi asosiy omili – bu bandlik shakllaridir. Mehnat faoliyati rasmiy (davlat va xususiy) va norasmiy (yakka tartibdagi, o'zini o'zi band qilgan) yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Zamonaviy sharoitda freelance – ya'ni mustaqil faoliyat yuritish shakli ham ommalashib bormoqda. Har bir bandlik turi real daromad hajmiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Aholining daromad manbalari keng ko'lamli bo'lib, ish haqi, xo'jalik daromadlari, investitsion tushumlar, ijara to'lovlari, xorijdan yuboriladigan pul o'tkazmalari, davlat transferlari (pensiya, nafaqa, kompensatsiyalar) kabi turlarni o'z ichiga oladi. Bu manbalarni diversifikatsiyalash orqali real daromadlarni barqarorlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Real daromadlar shakllanishi tashqi iqtisodiy va institutsional omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Jumladan:


- hududiy omillar: infratuzilma, iqtisodiy faoliyat turlari va ish o'rinlarining mavjudligi;
- bozor sharoitlari: talab va taklifning muvozanati, narxlar darajasi;
- davlat siyosati: soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar, inson kapitalini rivojlantirish dasturlari.

Shunday qilib, inson kapitali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va ilmiy-texnik taraqqiyotining o'sish omilidir. Bu sarmoyaning asosi bo'lgan ta'lim tizimiga jamiyatning qiziqishi ortib bormoqda. Insonlarga investitsiya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi. Inson kapitali sohasidagi tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ushbu kapitalning to'plangan darajasiga hamda undan foydalanish xususiyatiga bog'liqligini tasdiqlaydi. Inson kapitali darajasi davlatning erishilgan afzalliklarni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini tanlashda muhim mezon hisoblanadi.

O'zbekistonda Hukumat tomonidan inson kapitalini rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish va turmush farovonligini yaxshilash yo'nalishida ko'plab qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun O'zbekistonda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar belgilanib olingan. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston"ning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish to'rtinchi ustuvor maqsad etib belgilangan. Ushbu strategiya doirasida:

- maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish,
- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish,
- iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish,
- "daromadi o'rta chadidan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish masalalari dolzarb vazifa sifatida qo'yilgan.

Ushbu amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasi sifatida hukumat tomonidan inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar va aholi daromadlarining o'sib borishini 2-rasm orqali ko'rib chiqishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda inson kapitaliga investitsiyalar va aholi real daromadlarining o'zgarishi²

2 mf.uz va siat.stat.uz rasmiy saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



2-rasmda so'nggi yillarda ta'lim va sog'liqni saqlashga ajratilgan davlat xarajatlari, aholi real daromadlari hamda aholi jon boshiga real daromadlar dinamikasi asosida iqtisodiy jarayonlar tahlil qilinadi.

2018–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida aholi real daromadlarini shakllantirish, inson kapitaliga yo'naltirilgan davlat xarajatlari hajmi va tarkibida muhim o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga ajratilayotgan mablag'lar miqdoriy jihatdan keskin oshgan bo'lsa-da, ularning jami davlat xarajatlari tarkibidagi ulushi nisbatan pasaygan. Masalan, ta'limga ajratilgan mablag'lar 2018-yildagi 20,7 trln so'mdan 2023-yilda 61,2 trln so'mga yetgan. Xuddi shunday, sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag'lar 3,4 barobarga oshgan. Bu holat boshqa yo'nalishlar – xususan, infratuzilma, xavfsizlik va ijtimoiy himoya sohalariga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham jadal o'sayotganini ko'rsatadi.

Aholi real daromadlari hajmi ham izchil ortib borgan. 2018-yilda 26,6 trln so'm bo'lgan real daromadlar hajmi 2023-yilda 68,7 trln so'mga yetgan. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning umumiy o'sishini, ishlab chiqarish hajmlarining kengayganini va aholi mehnat faoliyatidan olinayotgan foydaning ortganini anglatadi. Biroq aholi real daromadlarining yillik o'sish sur'atlari asta-sekin pasaygan: 2018-yildagi 107 % darajadagi o'sish 2023-yilda 105 % ga tushgan. Bu esa inflyatsiya, narxlarining o'sishi va boshqa iqtisodiy omillar fonida daromadlar o'sishining barqaror emasligidan dalolat beradi.

Aholi jon boshiga real daromadlar ham 2018-yildagi 8 mln so'mdan 2023-yilda 18,8 mln so'mga oshgan, ya'ni 2 barobardan ortiq o'sishga erishilgan. Biroq bu ko'rsatkich bo'yicha ham o'sish sur'atlari 2019–2021-yillar oralig'ida yuqori bo'lgan. Umuman olganda, davlat tomonidan inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan xarajatlari va aholi real daromadlarining ortishi ijobiy tendensiyaga ega ekani kuzatilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tahlillar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy iqtisodiy o'sishga o'tishda inson kapitalining to'planishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Inson kapitali – bu aholining ishlab chiqarish qobiliyati va daromad salohiyatiga bevosita ta'sir qiluvchi ko'nikmalar, ta'lim darajasi, mehnatga layoqatlilik va salohiyati o'lchovidir.

Bugungi kunda inson kapitali oddiy mehnat resursi emas, balki innovatsion taraqqiyot, texnologik yangilanish va raqobatbardosh iqtisodiyotning poydevori sifatida e'tirof etilmoqda. Malakali, sog'lom va zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lgan fuqarolar jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, aholining real daromadlarini ko'paytirish va ularni barqarorlashtirishda inson kapitalining sifat jihatdan rivoji muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada inson kapitali tushunchasi, uning asosiy tarkibiy qismlari va aholi real daromadlariga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiy sharoitida real daromadlarni shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirish orqali amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari yoritib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Goldin, C. va Katz, LF (1998). Texnologiyaning kelib chiqishi – ko'nikmalarni to'ldirish. Iqtisodiyotning choraklik jurnali, 113, 693–732.
2. Jacob A.Mincer. The human capital earnings function. Volume ISBN: 0-870-14265-8, Volume URL: <http://www.nber.org/books/minc74-1>, 1974
3. Ahmad, Rana. (2020). Significance of human capital. British Journal of Humanities and Social Sciences, https://www.researchgate.net/publication/344781727_Significance_of_human_capital
4. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. – Т.: “Fan” нашриёти, 2019 – 595 б.
5. Умурзаков Б.Х. ва б. Меҳнат ресурслари шаклланиши ва тақсимланишининг ҳудудий усуллари / Монография. – Т.: “Lesson Press”, 2017 й. -184 б.
6. Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2013y. – 536b.
7. Худойбердиев З.Я. ва б. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси асослари. 2-нашр. Ўқув қўлланма. – Т.: “ILM ZIYO”, 2017й. – 344 б.
8. Абдурахмонова Г.Қ. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. –Т.: ЎзР ФА “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2021. – 696б.
9. Арабов Н.У. Ўзбекистон Республикасида меҳнат бозори инфратузилмасини ривожлантириш самарадорлигини ошириш. Монография. – Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2017й. -336 б.
10. A.B. Irmatova. Aholi kambag'alligining konseptual yondashuvlari. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali, 2024-yil 2-son. <https://laboreconomics.uz/article/196>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
